


## Qoraqalpog`iston Respublikasida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-martida 584 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,8 % kam demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (26 %), sanoat tarmog'ida (18,3 %), savdo sohasida (17,8 %), qurilishda tarmog'ida (17,0 %), yashash va ovqatlanishda (6,8 %), tashish va saqlashda (3,4 %) tashkil etilgan.

### 2018 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 256,7 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 11,8 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 103,0 %ni tashkil qildi;



– 237,7 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 35,4 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 135,9 %ni tashkil qildi;



– 350,2 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 87,0 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sinh sur`ati 120,7 % ni tashkil qildi;



– 555,9 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 59,1 %), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sinh sur`ati 102,4 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 92,3 % yoki 877,2 mlrd. so`mi (o`sinh sur`ati 0,9 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;


– 8,8 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 7,0 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 0,9 mln. AQSh dollariga yoki 11,6 % ga ko'p;




- avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,4 %ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 88,7 %i) ko'payishi ta'minlandi;
- yo'lovchi aylanmasining esa 2,8 % ga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 97,3 % ) ko'payishi ta'minlandi;

Tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (55,8 mlrd.so'm), Xujayli (28,2 mlrd.so'm) va Beruniy (23,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



## 2018 yil yanvar-martda tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




## 2018 yil yanvar-martda tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Tumanlar bo`yicha ko`proq chakana tovar aylanmasi hajmi Nukus shahri (227,6 mlrd.so`m), Beruniy (96,0 mlrd.so`m) va Xujayli (84,4 mlrd.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

### 2018 yil yanvar-martida tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur`ati



Tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Nukus shahri (302,5 mlrd.so'm), Turtkul tumani (35,8 mlrd.so'm) va Xujayli (31,2 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

### 2018 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning tumanlar bo'yicha ulushi (% da)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11,8	87,0	59,1
tumanlar:			
Amudaryo	29,0	98,8	91,4
Beruniy	38,2	100,0	92,3
Qorauzyak	100,0	100,0	94,7
Kegeyli	24,7	91,6	94,1
Qung'iroq	58,6	19,6	21,9
Qonlikul	9,5	100,0	93,7

Muynoq	6,2	100,0	93,5
Nukus tumani	100,0	95,7	93,7
Taxiatosh	1,8	47,8	94,1
Taxtakupir	100,0	100,0	94,4
Turtkul	51,2	100,0	85,5
Xujayli	36,9	99,4	68,9
Chimboy	86,6	100,0	90,0
Shumanay	100,0	100,0	94,0
Ellikqala	33,8	97,7	91,3
shahar:			
Nukus sh.	3,6	98,9	55,3

Tumanlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Qorauzyak, Nukus tumani, Taxtakupir va Shumanay tumanlari (100,0%), Chimboy (86,6 %), va Qung'iroq (58,6 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qorauzyak (94,7 %), Taxtakupir (94,4 %) va Kegeyli (94,1 %), Taxiatosh (94,1 %), Shumanay (94,0 %), Nukus (93,7 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Beruniy, Qorauzyak, Qonlikul, Muynoq, Taxtakupir, Turtkul, Chimboy va Shumanay (100,0 %), Xujayli (99,4 %), Nukus shahri (98,9 %) va Amudaryo (98,8 %) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 30,5 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-martida 35,7 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil I-chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 40 ta respondent ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, respondentlarning 25,0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 75,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 55,6 % va 44,4 %, va boshqalar




qurilishda – 50,0 % va 50,0 %, xizmatlar sohasida – 20,0 % va 80,0 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.

### Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil I-chorak uchun



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 28,6 % sanoat korxonalari, 25,0 % – savdo, 30,0 % – xizmatlar, 77,8 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 50,0 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

### Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.